

O'QUVCHILARNI TARBIYALASHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDAN FOYDALANISH

Meliyeva Iroda Xalilovna

Oriental University

Annotatsiya. Ushbu maqolada sharq mutafakkirlarining yoshlarni kamol topishdagi qarashlariga tayanib, bugungi kunda ta'lim-tarbiyani tashkil qilish orqali zamonaviy barkamol shaxsni shakllantirish usullari to'g'risida fikr berilgan.

Kalit so'zlar: Tarbiya, metod, o'quvchi, ta'lim, shaxs.

KIRISH

O'zbek halqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda qo'llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o'ziga xos urf-odati va an'analari, tarbiya g'oyalari va hayotiy tajribasi yillar davomida mukammallashib keldi. Hali tarbiya muassasalari bo'lmagan davrdayoq, qabila a'zolarining bolalarda mehnatsevarlik, jangovorlik, axloq-odob, nafosat, do'stlik, mehr – shafqatlilik, insonparvarlik xislatlarini shakllantirish va o'stirish sohasidagi aql – idroki va usullari o'sha davrdagi hayotiy tajribaning mevasi sifatida ijtimoiy hayotga bog'liq holda shakllandi va rivojlandi.

ASOSIY QISM

Bola, asosan, oila muhitida tarbiyalanib, inson sifatida shakllanadi. Tarbiya esa hayotning eng muhim tergagi, ya'ni tayanchi hisoblanadi. Har bir bolani shunday tarbiyalash lozimki, u, avvalo, yaxshi o'qishi va so'ngra esa, yozishni o'rganishi bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin.

Tarbiyaning asosiy vazifasi–shaxsning aqliy, axloqiy erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanish, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir. Buning uchun:

- yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash;
- hayot mazmunini tushunib olishga ko'maklashish;
- o'zini o'zi idora va nazorat qila bilishni shakllantirish;
- o'zining shaxsiy turmushga maqsadli yondashuvi;
- ularda reja va amal birligi hissini uyg'otish;
- o'quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar va vatanimizning boy ma'naviy merosi bilan tanishtirish;
- madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarni shakllantirish - malaka hosil qildirish, tobora o'stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish;
- har bir o'smirning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish kerak.

O'quvchi yoshlarimizga ta'lim-tarbiya berishda sharq mutafakkirlarining durujavharga teng ma'naviy meroslaridan foydalanishni eng to'g'ri usul deb hisoblash mumkin.

O'rta Sharq hamda O'rta Osiyo xalqlarining muqaddas kitobi "Avesto"da bolalar kamolotida mehnatning va kasb-hunarning ahamiyati to'g'risida g'oyat qiziq manbalar mavjud. "Avesto"da inson mehnati moddiy noz-nematlarni yaratish manbai bo'lganligi uchungina mehnat qilishga da'vat etilmoqda. Bunda mehnat axloqiy tarbiyaning asosiy vositasidir. Ezgulik yaratish uchun kishi mehnat qilishi, o'z qo'llari bilan moddiy boylik yaratishi zarurdir deyiladi. Tarbiya mehnat faoliyati jarayonida amalga oshirib kelingan vaqtlarida, odamlar mazkur qoidalarga amal qilib kelishgan.

Abu Nasr Farobiy, Axmad Yassaviy, Baxouddin Naqshbandiy, Imom al-Buxoriy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oni, Firdavsiy, Amir Temur, Navoiy va Bobur singari jahonga taniqli va shular singari boshqa aql egalarining ijtimoiy-siyosiy, falsafiy ta'limotlariga tayanib ish ko'rilsa tarbiya ta'sirchanligi yanada mukammallik kasb etadi.

«Fozil odamlar shahri», «Baxt va saodatga erishuv to'g'risida», «Ilmning kelib chiqishi», «Aql ma'nolari to'g'risida» kabi asarlarida mehnat qilish asosida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan.

Farobiy ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifasi jamiyatning talablariga javob bera oladigan shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi. U ta'lim va tarbiyaga uchinchi bo'lib ta'rif bergan olim.

Ta'lim degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya-ilmining nazariy fazilatini ma'lum hunarni egallash uchun zarur bo'lgan xulq normalarini va amaliy malakalarini o'rgatishdir, deydi olim. Farobiy fikricha, yer yuzida faqat inson bilish qobiliyatiga ega. Haqiqatni bilish esa, insonning tabiiy rivojlanish holatidan biridir, deydi.

Sharqda mashhur bo'lgan allomalardan biri Abu Ali Ibn Sino bolalarni maktabda o'qitish zarurligini qayd etar ekan, ta'lim-tarbiyada quyidagi tamoyillarga rioya qilish zarurligini ta'kidlaydi.

- yoshlarga ta'lim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
- ta'limda onsondan murakkabga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
- jamoa bo'lib maktabda o'qishga e'tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini xisobga olish;
- o'qishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

Yuqoridagi masalalarga Ibn Sino o'zining «Tadbiri manzil» asarining «Bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash» bo'limida to'xtalib, ta'lim-tarbiya jarayonini olib boradi.

O'quvchilarga bilim berish o'qituvchining asosiy burchidir. Shunga ko'ra, Ibn Sino o'qituvchi qanday bo'lish kerakligi haqida fikr yuritib, shunday yo'l-yo'riqlar beradi:

- bolalar bilan muomala bosiq va jiddiy bo'lish;
- berilayotgan bilimni talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berish;
- ta'limda turli usullardan foydalanish;
- fanga qiziqтира olish;
- berayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish;
- bilimlarni talabalarning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- har bir so'zning bolalar xissiyotini darajasida bo'lishiga erishish zarur.

Ibn Sino o'zining "Tadbir ul-manozil" asarida bolani maktabda o'qitilishi va tarbiyalanishi hamma bolalar uchun tegishli ekanligini ta'kidlagan. Ibn Sinoning qimmatli fikrlaridan biri shundan iboratki, u tarbiya masalalariga bag'ishlangan asarlarida o'qituvchining roliga katta e'tibor bilan qaragan, tarbiyachi tanlash muhim masala deb hisoblagan. U bola 6 yoshga to'lishi bilan uni o'qituvchining tarbiyasiga berishni tavsiya qiladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Sharq mutafakkirlarimizning bebaho duru-javohirlaridan foydalanish orqali ta'lim-tarbiyani to'g'ri olib borish orqali yosh avlodni tashabbuskorlik, tashkilotchilik, mehnatga ijodiy yondashish, jamoa manfaatlarini o'z manfaatidan ustun qo'yish singari axloqiy sifatlari shakllantirib boriladi va ularni komil inson qilib voyaga yetkazishda xizmat qiladi. Zero, Vatan ravnaqi va kelajagi barkamol yoshlar qo'lidadir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O.Xasanboeva J.Xasanboev, H.Homidov "Pedagogika tarixi" – "G'afur G'ulom" nashriyoti-matbaa ijodiy uyi. -T.: 2014 y. 415 b.

2.U.D.Murodova Tarbiya-hayotning muhim tergagi. "Maktab va hayot" ilmiy-metodik jurnal. 2010 yil №5(73)-son. 18-bet.

3.www.ziynet.uz